



Oila, ta'lim va mahalla muhitining yoshlar axborot madaniyatiga ta'siri

**Qudratov Sirojiddin
Xolmatovich**

*ISFT (international school of finance
technology and science) instituti
1-bosqich mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila, ta'lim muassasalari va mahalla muhitining yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishdagi o'zni tahlil qilinadi. Ushbu ijtimoiy institutlar yoshlarning axborotni qabul qilish, tahlil etish va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi ochib berilgan. Falsafiy jihatdan, maqolada axborot madaniyati shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, ma'naviy qadriyatlari va tanqidiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etilgan. Shuningdek, yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish va ularning ongli axborot muhitida shakllanishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: "axboriy determinizm", "axboriy erkinlik", axborot makoni, oila, ta'lim va mahalla muhiti, "kommunikativ ong" nazariyasi, axborot madaniyati, "borliq", "ong", "qadriyat" va "madaniyat" kategoriyalari.

Oila, ta'lim va mahalla muhitining yoshlar axborot madaniyatiga ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan insonning ijtimoiy mavjudlikdagi o'rnini, uning ongini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlar o'zaro munosabatining falsafiy mohiyatini ochib beradi. Bu uch muhit insonni nafaqat ijtimoiylashuvga, balki axborot makonida o'zini anglash, axborot oqimlarini tanlash va baholash qobiliyatiga ega bo'lgan sub'yekt sifatida shakllanishiga olib keladi. Shu ma'noda, axborot madaniyatining ildizlari ijtimoiy-falsafiy tizimda "borliq", "ong", "qadriyat" va "madaniyat" kategoriyalari orqali ifodalanadi; oila, ta'lim va mahalla esa ana shu kategoriyalarning ijtimoiy voqeilikdagi hayotiy ko'rinishlaridir.

Oila ijtimoiy borliqning eng qadimiy shakli sifatida insonning ma'naviy-axboriy mavjudligini shakllantiruvchi boshlang'ich makondir. Unda axborot almashinuvi faqat texnik jarayon emas, balki ma'naviy muloqot shaklidir. Inson ongining dastlabki semantik asoslari — til, ramz, ishonch va qadriyatlar oilada shakllanadi. Shu sababli oila insonni axborot muhitining passiv iste'molchisi emas, balki axborotning ma'naviy mazmunini anglaydigan sub'yekt sifatida tarbiyalaydi.

Ta'lim esa axborot madaniyatining gnoseologik o'lchovidir. U inson tafakkurini shakllantirish, bilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida axborotni tizimlashtirish va tahlil qilishni o'rgatadi. Falsafiy metodologiya nuqtayi nazaridan ta'lim shaxs ongini "axboriy determinizm"dan "axboriy erkinlik" darajasiga olib

chiqadi. Boshqacha aytganda, ta'lim insonni mavjud axborotni takrorlash emas, balki uni qayta ishlab, yangi ma'no yaratuvchi mavjudotga aylantiradi. Shu jihatdan, ta'lim jarayoni insonning bilish faoliyatini axborot muhitining estetik va aksiologik mezonlari bilan uyg'unlashtiruvchi ijtimoiy-falsafiy tizimdir. Bu jarayonda shaxs o'z tafakkurining mezonlarini anglaydi, axborotlar orasida tanlov qiladi, haqiqat va manipulyatsiya o'rtasidagi farqni sezadi. Ta'lim insonni "axborotlashgan jamiyat"dagi anonim ongdan chiqarib, "tanqidiy ong" darajasiga olib chiqadi. Shu bois axborot madaniyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyati ta'lim tizimi orqali inson tafakkurining ma'naviy erkinligi va intellektual mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Mahalla esa axborot madaniyatining aksiologik va ijtimoiy uyg'unlik o'lchovidir. U insonni ijtimoiy aloqalar tizimiga kirituvchi, axborot oqimlarini ma'naviy mezonlar bilan muvofiqlashtiruvchi sotsial makondir. Mahalla axborot muhitida ijtimoiy qadriyatlar filtri sifatida amal qiladi — u insonni milliy, madaniy va axloqiy kontekstda saqlaydi. Shu jihatdan mahalla ijtimoiy ongni tartibga soluvchi aksiologik muvozanat tizimidir. Falsafiy tilda aytganda, mahalla "ijtimoiy borliqning ma'nolar maydoni"dir, u orqali shaxs jamiyat bilan muloqot qiladi, ijtimoiy qadriyatlarni qayta ishlab, yangi ma'nolar yaratadi. Mahalla insonni axborot oqimlaridagi begonalashuvdan saqlaydi, unga "o'zlikni anglash" mezonlarini beradi.

Uch muhitning o'zaro uyg'unligi inson axborot madaniyatining sinergetik tizimini shakllantiradi. Oila insonning ontologik tayanchi sifatida uni borliq bilan bog'lasa, ta'lim gnoseologik jarayon orqali uning bilish tizimini shakllantiradi, mahalla esa aksiologik mezonlar orqali insonning axborot xulqini tartibga soladi. Shu uyg'unlikda inson axborotni faqat tashqi haqiqat emas, balki ma'naviy hodisa sifatida idrok etadi.

Tadqiqotchi olimlardan biri O.Jumankuziyev yoshlarning axborot madaniyati ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liqligini asoslab, shunday yozadi: "Oila, ta'lim va mahalla tizimlarida shakllanadigan ijtimoiy kommunikatsiyalar shaxsning axborotga nisbatan munosabatini belgilaydi; inson atrofidagi axborot oqimlari shunchalik katta va xilma-xilki, bu shaxsni axborot muhitini anglash va uni boshqarish ko'nikmasini egallashga majbur etadi"¹. Muallifning bu fikri axborot madaniyatining ijtimoiy asosini to'liq yoritadi: inson ijtimoiy aloqalardan uzilgan holda axborot sub'ekti sifatida shakllana olmaydi. Shu bilan birga, tanqidiy jihatdan aytganda, Jumankuziyev yondashuvda axborot madaniyatining ma'naviy, aksilteknik va axloqiy komponentlari ikkinchi darajaga surilgan. Ijtimoiy falsafa esa axborot madaniyatini faqat bilish yoki texnik ko'nikma emas, balki ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlar uyg'unligida ko'radi.

Zamonaviy jamiyatda oila, ta'lim va mahalla muhitining yoshlar axborot madaniyatiga ta'siri inson va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy-falsafiy uzviylik qonuniyatlari orqali izohlanadi. Chunki bu uch muhit insonning ijtimoiy mavjudligini tashkil etuvchi asosiy tizimlar bo'lib, ularning har biri shaxsning axborot muhitida o'zini anglash, ma'lumotni idrok etish, tahlil qilish va ma'naviy mezonlar asosida baholash qobiliyatini shakllantiruvchi ijtimoiy makondir. Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan bu jarayon borliq

¹ Jumankuziyev O.O. Talabalarining axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. // *Ekonomika i sotsium*. №4 (119)-2, 2024. – B. 212–215.

va ongning birligi, sifat va miqdor o'zgarishlari, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi hamda inkorning inkori qonunlari asosida kechadi.

Mahalla esa ijtimoiy muhitning ijtimoiy-aksiologik tizimi sifatida insonni ijtimoiy aloqalar, qadriyatlar va madaniy me'yorlar uyg'unligiga olib kiradi. Bu muhitda inson o'z "men"ini jamiyat bilan uyg'unlashtiradi. Shu jarayon qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni asosida kechadi. Chunki axborot makonida yoshlar ongida ikki yo'nalish to'qnashadi: biri global informatsion oqimlarning universallashtiruv tendensiyasi, ikkinchisi esa milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy me'yorlarning barqarorlik tamoyilidir. Mahalla ana shu ikki kuch o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi — u global va lokal madaniyat o'rtasidagi dialektik uyg'unlikni shakllantiradi. Natijada, insonning axborot madaniyati individual tafakkurdan ijtimoiy mas'uliyatli tafakkur darajasiga ko'tariladi. Bu jarayonning yakuniy bosqichi inkorning inkori qonuni bilan izohlanadi. Har bir bosqichda insonning axborot ongi o'z-o'zini yangilaydi: oila bosqichida shakllangan ma'naviy tasavvurlar ta'lim jarayonida tanqidiy tahlil orqali yangilanadi, mahalla muhitida esa ular jamiyat tajribasi bilan uyg'unlashib, yangicha ma'naviy shaklga ega bo'ladi. Insonning axborot madaniyati shu tarzda spiral shaklida rivojlanadi — u o'tgan bosqichni inkor etmaydi, balki uni yangi, mukammalroq shaklda qayta tiklaydi. Shu jihatdan, axborot madaniyati inson tafakkurining o'zini anglash jarayonidir: u doimiy yangilanish, o'zini inkor etish va o'zini qayta yaratishdan iborat dialektik harakatdir

G.G'affarova axborot madaniyatini shaxsning tafakkur tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'lab, "axborotning ontologik mohiyati inson tafakkurining o'zini anglash jarayonida namoyon bo'ladi; axborot muhitida inson o'zining bilish imkoniyatlarini kengaytiradi"² deb yozadi. Olimaning ushbu fikri ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan oila va ta'lim tizimining inson tafakkuridagi axborotiy mexanizmlarni shakllantiruvchi o'rnini tasdiqlaydi. Oila ijtimoiy-madaniy kodlarning birlamchi uzatuvchisi, ta'lim esa ularni ongli shaklga keltiruvchi ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga, tanqidiy jihatdan qaraganda, G'affarovaning yondashuvi asosan gnoseologik xususiyatga ega bo'lib, axborotning axloqiy va ijtimoiy determinantlari — oila va mahalla qadriyatlar tizimi orqali ongga ta'sir etuvchi kuchlar to'liq yoritilmagan. B. Primov esa axborot muhitining yoshlar ongiga ta'sirini axloqiy kontekstdan yondashadi: "Axborot oqimining jadallashuvi sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy immunitetini shakllantirish ijtimoiy madaniyatning eng muhim vazifasidir; bu immunitet oila va ta'lim jarayonida tarbiyalanadi"³. Bu qarashda oila va ta'limning axborot jarayonlaridagi axloqiy filtrlovchi roliga urg'u berilgan. Falsafiy jihatdan, bu yondashuv ijtimoiy-falsafiy realizm pozitsiyasiga yaqin — axborot madaniyati insonning ijtimoiy mavjudligi va ma'naviy faoliyati o'rtasidagi muvozanat sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Primovning nazariyasida mahalla muhitining ijtimoiy o'zini o'zi boshqaruvchi, hamjihatlikni saqlovchi axborot maydoni sifatidagi roli yetarli darajada ochilmagan. Aslida, mahalla nafaqat ijtimoiy nazorat tizimi, balki kollektiv

² G'affarova G.G'. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari. — Toshkent: O'zMU, 2019. — B. 6–8.

³ Primov B.A. Axborot oqimi jadallashuvining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'siri. — Toshkent: TDIU, 2020. — B. 8–9.

axborot almashinuvi, qadriyatlarni muvofiqlashtiruvchi ijtimoiy ong shakllantiruvchi makondir.

T. Ergashev axborot makonining yoshlar tafakkuridagi innovatsion jihatlarini ochib, “axborot makoni yoshlarning ijtimoiy tafakkurini, dunyoqarashini va yangilikka intiluvchanlik salohiyatini shakllantiruvchi ijtimoiy makondir”⁴ deb yozadi. Bu yondashuv ijtimoiy falsafa uchun muhim, chunki u ta’lim jarayonini shunchaki bilim beruvchi tizim emas, balki axborot madaniyati shakllantiruvchi g’oyaviy muhit sifatida talqin etadi. Shuningdek, Ergashev fikrida mahalla ijtimoiy nazorat emas, balki hamjihatlikni, axborot almashinuvida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlovchi institut sifatida ko’rsatiladi. Ammo tanqidiy nuqtai nazardan, bu yondashuvda oila va ta’lim o’rtasidagi ijtimoiy rol farqlari, ularning axborot madaniyatiga ta’sir bosqichlari yetarlicha differensial tahlil qilinmagan.

A. Xudayberdiyev axborot xavfsizligini shaxsning axborot madaniyati bilan uzviy bog’laydi va “yoshlarning ongi va tafakkurini ijtimoiy axborot tahdidlaridan himoya qilish oila, ta’lim va mahalla tizimlari o’rtasidagi hamkorlik samaradorligiga bog’liq”⁵ deya yozadi. Bu yondashuv ijtimoiy falsafaning aksiologik paradigmasiga to’liq mos keladi, chunki axborot madaniyati faqat texnologik emas, balki ma’naviy xavfsizlik hodisasidir. Shu bilan birga, tanqidiy tahlil shuni ko’rsatadiki, axborot tahdidlari faqat tashqi omillar emas — ularning manbai ko’pincha shaxsning o’z axborot tanlashdagi befarqligidadir. Shu sababli axborot madaniyatining ijtimoiy ildizlari — oila, ta’lim va mahalla — bu masalada faqat himoya mexanizmi emas, balki faol ma’naviy tarbiya o’chog’i bo’lishi zarur. Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, oila, ta’lim va mahalla yoshlar axborot madaniyatining ijtimoiy-falsafiy poydevorini tashkil etadi.

“Ta’lim falsafasi: paydeyadan ekranga qadar” nomli tadqiqotda zamonaviy ta’lim jarayoni insonni raqamli muhitda ongli fikrlashga o’rgatish zaruratini falsafiy asosda tahlil etiladi: “Bugungi ta’limning maqsadi — insonni ekranga qarab emas, balki ekran orqali fikrlashga o’rgatishdir”. Bu g’oya o’ta dolzarb, chunki oila va ta’lim muhitida yosh avlod endilikda so’zdan ko’ra tasvir orqali tarbiya olmoqda. Natijada, ularning axborotni idrok etish shakli vizual darajaga siljiyapti, bu esa tanqidiy fikrlashni zaiflashtiradi. Shuning uchun ta’lim falsafasi, avvalo, o’qituvchi va ota-onani o’zi ham “axborotdan ma’noga o’tuvchi tafakkur” madaniyatiga ega bo’lishga undaydi. Axborotning shakliga emas, mazmuniga e’tibor qaratish — bugungi ta’lim va oilaviy tarbiyaning eng muhim falsafiy vazifasidir.

Yuri Polyakov “G’azablar fabrikasi” nomli asarida madaniyat va axborot o’rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur tahlil qilib, “madaniyatning soxtalashtirilishi insonning ruhiy immunitetini yemiradi, u yolg’on qadriyatlarni haqiqat deb qabul qila boshlaydi”⁶ degan xulosaga keladi. Bu fikr bevosita yoshlarning axborot madaniyatiga daxldor. Chunki oila va mahalla o’z mohiyatiga ko’ra madaniyatni soxtalikdan himoya qiluvchi “ma’naviy filtrllovchi mexanizm”dir. Polyakovning

⁴ Ergashev T.E. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar innovatsion tafakkurining shakllanishi. – Samarqand: SamDU, 2021. – B. 11–13.

⁵ Xudayberdiyev A.K. O’zbekiston talaba-yoshlarining axborot xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini. – Toshkent: O’zMU, 2020. – B. 6–7.

⁶ Поляков Ю. М. Фабрика гроз: статьи о литературе и искусстве. – Москва: Прометей, 2021. – С. 219.

ogohlantiruvchi ohangdagi fikridan kelib chiqadigan falsafiy xulosa shuki, oila va mahalla insonning axborot oqimlaridagi mavjudligini qadriyatlar orqali tartibga soluvchi ijtimoiy zamin vazifasini bajaradi. Bu muhitlar yo‘q joyda esa inson ongini algoritmlar, reklama va virtual obrazlar boshqaradi.

V.I.Bodyakin “Neyrosemanitika. Axborot boshqaruv tizimlari” nomli asarida shunday yozadi: “Axborot tizimlari inson tafakkurining tashqi modeli bo‘lib, ular orqali jamiyat o‘z ongini texnologiyalar orqali amalga oshiradi”⁷. Bu fikr axborot jamiyatida inson va texnologiya o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolishini falsafiy tarzda ochib beradi. Agar axborot tizimlari inson tafakkurining tashqi ko‘rinishiga aylangan bo‘lsa, demak, oila va ta‘lim bu tizimlar bilan ishlash madaniyatini — ya‘ni “axborot etikasini” shakllantirishi zarur. Buning aksi holda, inson texnologik jarayonlarning quliga aylanadi. Shunday ekan, oila va maktabning vazifasi yoshlarni texnologiyalardan foydalanish emas, balki ular bilan yashash madaniyatini o‘rgatishdir.

G.U.Soldatova va uning hamkasblari “Biz raqamli dunyo uchun javobgarmiz” asarida shunday yozadilar: “Oila va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik yoshlarning raqamli muhitdagi xulqini tartibga soluvchi eng muhim ijtimoiy mexanizmdir”⁸. Bu fikr falsafiy jihatdan Habermasning “kommunikativ ong” nazariyasi bilan uyg‘un. Axborot madaniyati — bu shunchaki bilim yoki ko‘nikma emas, balki o‘zaro tushunish madaniyatidir. Oila bu muloqotning yuragi, ta‘lim uning ongiy shakli, mahalla esa ijtimoiy muvozanatini ta‘minlovchi g‘ildirakdir. Bu uchlik uyg‘unlashgandagina jamiyatda sog‘lom axborot madaniyati shakllanadi. Shunday qilib, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan oila, ta‘lim va mahalla — insonning axborot asrida ma‘naviy barqarorligini ta‘minlaydigan uch ustundir. Oila — axborotni qadriyatga aylantiradi, ta‘lim — uni bilimga aylantiradi, mahalla esa — uni ijtimoiy ma‘no bilan to‘ldiradi. Shu uyg‘unlikda axborot madaniyati shaxsda faqat texnik emas, balki ma‘naviy tafakkur shakliga aylanadi. Bu jarayonda inson raqamli dunyoning ob‘ekti emas, balki ongli sub‘ekti sifatida yetishadi.

Xulosa qilganda, oila, ta‘lim muassasalari va mahalla muhiti yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishda o‘zaro uzviy va bir-birini to‘ldiruvchi asosiy ijtimoiy omillar hisoblanadi. Oila yoshlarning dastlabki axborotga munosabati, axloqiy qadriyatlari va mas‘uliyat hissini shakllantirsa, ta‘lim tizimi axborotni tanqidiy tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mahalla esa yoshlarning ijtimoiy faolligi, jamoatchilik bilan muloqoti va axborot makonida mas‘uliyatli xulq-atvorini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu muhitlarning hamkorligi yoshlarni turli axborot tahdidlaridan himoyalash va ularning ongli, ma‘naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jumankuziyev O.O. Talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. // *Ekonomika i sotsium.* №4 (119)-2, 2024. – B. 212–215.
2. G‘affarova G.G‘. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-

⁷ Бодякин В. И. Нейросемантика. Информационно-управляющие системы. Искусственный разум. — Москва: Академический проект, 2020. — С. 216.

⁸ Солдатова Г. У., Чигарькова С. В., Дренева А. А., Илюхина С. Н. Мы в ответе за цифровой мир. — Москва: Когито-Центр, 2019. — 176 б. — С. 88.

metodologik asoslari. – Toshkent: O‘zMU, 2019. – B. 6–8.

3. Primov B.A. Axborot oqimi jadallashuvining yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri. – Toshkent: TDIU, 2020. – B. 8–9.

4. Ergashev T.E. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar innovatsion tafakkurining shakllanishi. – Samarqand: SamDU, 2021. – B. 11–13.

5. Xudayberdiyev A.K. O‘zbekiston talaba-yoshlarining axborot xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari. – Toshkent: O‘zMU, 2020. – B. 6–7.

6. Поляков Ю. М. Фабрика гроз: статьи о литературе и искусстве. – Москва: Прометей, 2021. – С. 219.

7. Бодякин В. И. Нейросемантика. Информационно-управляющие системы. Искусственный разум. – Москва: Академический проект, 2020. – С. 216.

8. Солдатова Г. У., Чигарькова С. В., Дренева А. А., Илюхина С. Н. Мы в ответе за цифровой мир. – Москва: Когито-Центр, 2019. – 176 б. – С. 88.